

“Innovatsion pedagogika” mavzusidagi xalqaro o‘quv seminari

PRESS-RELIZ

20-21 avgust kunlari Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi hamda UNESCO tashkiloti hamkorligida “Innovatsion pedagogika” o‘quv seminari bo‘lib o‘tdi.

UNESCO tashkiloti O‘zbekiston o‘qituvchilarining malakasini oshirish yondashuvlarini moslashtirish loyihasi doirasida Prezident ta'lim muassasalari agentligi bilan hamkorlikda o‘qituvchilarning sifatli o‘qitish resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaxshilash maqsadida innovatsion pedagogika bo‘yicha o‘qituvchilar uchun qo‘llanma yaratmoqda va ishlab chiqarmoqda.

Ushbu seminar davomida “Yuksalish yo‘lida 45 daqiqa” nomli qo‘llanma taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Ushbu qo‘llanma chekka hududlarda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni tatbiq qilish, ilg‘or tajribalar va dars rejalarini taklif qilish orqali ehtiyoj tug‘ilgan XXI asr ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Seminar yetakchi ekspert va o‘qituvchilarni jalb qilish orqali innovatsion ta'lim va o‘qitish sohasidagi yangi ishlanmalarga e‘tibor qaratiladi. Shuningdek, hududiy ilg‘or trenerlarning amaliy mashg‘ulotlarda qatnashishlari va yangi pedagogik ko‘nikmalarga ega bo‘lish salohiyatlarini oshirishlari ko‘zda tutilgan. Seminarda barcha viloyatlardan yuzdan ortiq mahoratli trenerlar, o‘qituvchilar, malaka oshirish bo‘yicha yetakchi ekspertlar ishtirok etadi.

“Yuksalish yo‘lida 45 daqiqa” o‘qituvchilar uchun qo‘llanma

Innovatsion pedagogika bo‘yicha amaliy qo‘llanma XXI asr ko‘nikmalarni rivojlantirish yondashuvlarini qo‘llash orqali o‘qitish bo‘yicha o‘qituvchilar uchun doimiy yondaftar bo‘lib xizmat qiladi. Darsni rejalashtirish sinf amaliyotlari orqali nazariya, amaliy ishlar va amaliy faoliyat orqali tushuntirishlar berish, shuningdek o‘qituvchilar ushbu qo‘llanmani mavzu sohalariga muvofiq qabul qilishlari mumkin.

Ushbu o‘quv qo‘llamadan maqsad:

O‘zbekistonda o‘qituvchilarni innovatsion pedagogika bo‘yicha o‘qitish va ta'lim sifatini oshirish;

Qo‘llanmadan amaliy foydalanish uchun har bir fan o‘qituvchilari va mahoratli trenerlarning kompetensiyalarini oshirish.